

**ABDULLA QODIRIY DRAMMALARINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI
("BAXTSIZ KUYOV" ASARI MISOLIDA)**

Alisherova Asilabonu Absalomovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi.

Shaxnoza Norkulova

Ilmiy rahbar. TISU dotsenti.

Termez (Uzbekistan) Phone: +99890-519-96-33.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17167115>

Annotatsiya. Ushbu maqolada A. Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" asari va unda ta'kidlangan ta'limiy-axloqiy masalalar haqida fikr yuritiladi. Asarda muhabbat, ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik kabi dolzarb mavzular tilga olinadi. Asosiy qahramon Solih va Rahima o'rtasidagi fojiaiy muhabbat hikoyasi orqali eski urf-odatlar qoralanadi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, "Baxtsiz kuyov", "Padarkush", majburiy nikoh, ijtimoiy tengsizlik, muhabbat fojiasi, eski urf-odatlar, drammatik asar, adabiy tahlil.

Abdulla Qodiriy tarjimai holida adabiy faoliyatining boshlanishi shunday xotirlaydi; "Shu miyanalardan bozor vositasi bilan tatarlardan chiqadurg'on, gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borlig'iga imon keltirdim¹. 1913-yilda o'zbekcha "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914-yili 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy imzosi bilan "Yangi masjid va madrasa" nomli xabari bo'ladi. Adibning 1917-Oktabr to'ntarishlaridan keying faoliyati asosan matbuot ya'ni publisistika bilan bog'liq. U 1919-1925-yillar oralig'ida 300 ta turli maqolalar, publisistik asarlar yaratgan. Abdulla Qodiriy jurnalistik faoliyati haqida: "Xulosa boshqalarning xizmat daftari bilan sobit bo'lsa, mening xizmatlarim matbuot bilan ravshandir" deydi. Bu jumla orqali Abdulla Qodiriy o'z ijodini faqat shaxsiy manfaat emas balki xalq uchun xizmat sifatida ko'rganini takidlaydi. Bu orqali esa o'z jurnalistik faoliyatini millatparvarlikga, ma'naviy uyg'onishga, xalqni ilm-marifatga chorlashga bag'ishlaydi. U o'zini matbuot orqali xalq xizmatiga safarbar qilgan ijodkor sifatida ko'rdi. Uning bu so'zlari ham, qalam orqali qilgan xizmatlari ham hech qachon unitilmasligini, matbuotda qoldirgan izlari esa doimiy ravishda xalq ongida yashashini anglatadi. Abdulla Qodiriy adib va shoir sifatida 1912-yillarda o'z faoliyatini boshlagan. "To'y", "Ahvolimiz", "Millatimga", "Fikr aylagil" kabi she'rlari "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Juvonboz" hikoyasi uning ilk asarlaridir.

Abdulla Qodiriy shunday xotirlaydi: "1913-yilda chiqqan "Padarkush" dramasi ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg'animga o'zim ham payqamay qoldim (1915-yilda) yana shu yilda teatrlarda chiqib turg'on hikoya va ro'monlarga taqlidan "Juvonboz" otliq hikoyachani yozib noshir topilmag'onidan, o'zim nashr qilib yubordim. Nikolay taxtdan yiqilgandan keyin oddiy xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yozildim" deya xotirlaydi. Bu yozgan kichik hikoyalari va dramalari orqali Abdulla Qodiriy katta saboq bera oladi. Adibning 1916-yilda yozilgan "Uloqda" hikoyasi o'zbek realistik hikoyasining eng yaxshi namunalaridan biri hisoblanadi. Bundan so'ng adib birin-ketin "Kalvak mahzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat

¹ Sobir Mirvaliyev. O'zbek adiblari. O'zbekiston fanlar akademiyasining "Fan" nashriyoti. – Toshkent: 1993. 9-b

tajang nima deydi?” “Obid ketmon” kabi nasriy asarlarini yaratadi. 1926-yili “Mushtum” jurnalida Qodiriyning “Yig‘indi gaplar” nomli hikoyasi bosilib chiqadi. “Baxtsiz kuyov” 1914-1915-yillarda yozilgan bo‘lib, bu davr jadidchilik va milliy uyg‘onish g‘oyalarining faol tarqalgan davriga to‘g‘ri keladi. Abdulla Qodiriy o‘sha paytda jamiyatdagi an‘anaviy nikoh va oilaviy amaliyotlarini tanqid qilib, yangi ma‘rifat va ta‘lim g‘oyalarini ilgari surgan yozuvchilardan hisoblanadi.

To‘ylar, turli marosimlar bilan bog‘liq muammolar, isrofgarchilik va dil xiraliklar hamma vaqt asosiy muammo bo‘lib kelgan. Bunga asosiy sabab, insonlarning tor dunyoqarashi, atrofdagi odamlarning gapiga qarab ish qilishi va albatta haddan ortiq orzu-havasga berilishidir, Bunday insonlar nafaqat o‘zini balki, boshqalarni ham qiyin vaziyatda qoldirishi, hattoki hayotiga zomin bo‘lishi ham mumkin. Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi bo‘lgan Abdulla Qodiriy o‘zining “Baxtsiz kuyov” nomli dramasida aynan shu kabi muammolarni ko‘targan. Muallif qoloq odatlardan biri-hashamatli to‘y ortiqcha sarf-xarajatlar va ularning ko‘ngilsiz oqibatlarini yoritib bergan.

Drama 4 pardadan iborat, birinchi pardasi asosiy “konflikt”²ni – Solihning uylanish masalasi va uning moddiy ahvoli o‘rtasidagi to‘qnashuvni ochadi. Qodiriy realizmga tayangan holda o‘z davridagi o‘zbek jamiyatining turmush tarzini, urf-odatlarni va kambag‘al yoshlarning fojiasini ko‘rsatadi. Ikkinchi pardada muallif konfliktni yanada kengaytirib, Solihning fojiaiy taqdirini namoyon qiladi. Ellikboshi – haqiqat, Fayziboy – urf-odat, domla – diniy niqob ostidagi bid‘at, Abdurahim esa zaif irodani ifodalaydi. Bu to‘qnashuv orqali Qodiriy davridagi o‘zbek jamiyatidagi isrofgarchilik, bid‘at va “xalqdan uyalish” illatini fosh etadi. Uchinchi pardada Solihning ichki hayqirig‘i, boyning shafqatsiz shartlari va Abdurahimning irodasizligi jamiyatdagi muammolarni ochib beradi. To‘rtinchi parda esa asarning eng fojiali va eng ta’sirchan qismidir. Solih va Rahimaning o‘limi jamiyatdagi adolatsizlik va bid‘atlarning qurboni sifatida ko‘rsatiladi. Fayziboy va boy — fojining tashabbuskor sababchilari, elikboshi esa muallifning og‘zaki xulosachisi. Shu tariqa Abdulla Qodiriy jamiyatni o‘zini isloh qilishga, shariat va adolatga qaytishga chaqiradi.

Dramada tarbiyaviy jihat kuchli talqin etilgan. Yoshlarning mustaqil fikrlashi, o‘z hayoti uchun o‘zi javob berishi, kattalar esa farzandlarning fikrini hurmat qilishi lozimligi haqida chuqur xulosa qilamiz. Bu asar o‘quvchilarni qadimiy-urf odatlarga ko‘r ko‘rona ergashmasdan, adolat, insof va shaxsiy huquqlarga asoslangan holda hayot tarzini tanlashga undaydi. Bu asar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Nikoh masalalarida majburiylik, moddiy manfaatga asoslanish kabi illatlar jamiyatimizda hanuz uchramoqda. Abdulla Qodiriyning ushbu asari har bir kitobxonni oilaviy hayotning poydevori bo‘lgan muhabbatdan, o‘zaro hurmat va kelajak uchun ma’suliyatli qarorlar haqida chuqur mushohada qilishga undaydi. Shu bois “Baxtsiz kuyov” dramasi o‘zbek adabiyotida faqat tarixiy qadriyat sifatida emas, balki bugungi kunda ham dolzarb pand-u nasihat manbai sifatida qadrlanadi. Bu drama orqali bir shaxsning fojiasi emas balki butun bir davrning fojiasi ko‘rsatiladi.

² "Konflikt (lot. conflictus — ittilof, to‘qnashish) — 1) qarshi tomonlar, fikrlar, kuchlar to‘qnashuvi; 2) adabiyot va san’atda — badiiy asar mohiyatida yotgan ziddiyat, personajlarning o‘zaro to‘qnashishi"

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobir Mirvaliyev. O‘zbek adiblari. O‘zbekiston fanlar akademiyasining “Fan” nashriyoti. – Toshkent: 1993.
2. Abdulla Qodiriy. Baxtsiz kuyov. Cho‘lpon nashriyoti. – Toshkent: 2004.